Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri 2010–2024-yillar ma'lumotlari asosida ekonometrik usullar yordamida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, internet foydalanuvchilari ulushi 15,9 % dan 89 % ga, xavfsiz internet serverlari soni esa 0,07 tadan 966 tagacha, ya'ni 13 752 martaga oshganligi aniqlandi. Korrelyatsion tahlil natijalari internet penetratsiyasi va xizmatlar sektori o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik ($r = 0,87$) mavjudligini ko'rsatdi. Regressiya modellari asosida raqamlashtirishning YaIM o'sishi hamda xizmatlar sektorining rivojlanishiga sezilarli ta'siri mavjudligi isbotlandi. Shuningdek, 2020-yildagi pandemiya raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirgani kuzatildi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston raqamli iqtisodiyotini yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijalar raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi iqtisodiy diversifikatsiya va xizmatlar sektorining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, internet penetratsiyasi, xizmatlar sektori, raqamli transformatsiya, korrelyatsion tahlil, regressiya modeli.

Abstract. This study examines the impact of digitalization on macroeconomic indicators of Uzbekistan's economy based on data for 2010–2024 using econometric methods. The results show that the share of internet users increased from 15.9% to 89%, while the number of secure internet servers rose from 0.07 to 966, representing a 13,752-fold increase. Correlation analysis revealed a strong positive relationship between internet penetration and the services sector ($r = 0.87$). Regression models confirmed that digitalization has a significant impact on GDP growth and the development of the services sector. It was also observed that the COVID-19 pandemic (2020) accelerated digital transformation processes. Based on the findings, practical recommendations were developed to further enhance Uzbekistan's digital economy. The results indicate that the widespread adoption of digital technologies is a key factor in ensuring economic diversification and sustainable growth of the services sector.

Key words: digitalization, internet penetration, services sector, digital transformation, correlation analysis, regression model.

Аннотация. В данном исследовании проанализировано влияние процесса цифровизации на макроэкономические показатели экономики Узбекистана на основе данных за 2010–2024 годы с использованием эконометрических методов. Результаты анализа показали, что доля пользователей интернета увеличилась с 15,9 % до 89 %, а количество защищённых интернет-серверов возросло с 0,07 до 966, то есть в 13 752 раза. Корреляционный анализ выявил сильную положительную взаимосвязь между уровнем проникновения интернета и сектором услуг.



($r = 0,87$). Регрессионные модели подтвердили значительное влияние цифровизации на рост ВВП и развитие сектора услуг. Также установлено, что пандемия 2020 года ускорила процессы цифровой трансформации. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по дальнейшему развитию цифровой экономики Узбекистана. Полученные результаты показывают, что широкое внедрение цифровых технологий является важным фактором обеспечения экономической диверсификации и устойчивого роста сектора услуг.

Ключевые слова: цифровизация, проникновение интернета, сектор услуг, цифровая трансформация, корреляционный анализ, регрессионная модель.

KIRISH

XXI asr jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi davri sifatida tarixga kirib bormoqda. Raqamlashtirish nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini, balki butun iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun raqamli transformatsiya iqtisodiy o'sish va modernizatsiyaning muhim omiliga aylanmoqda.

O'zbekiston mustaqillik yillarida, ayniqsa 2016-yildan buyon keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar dasturini izchil amalga oshirib kelmoqda. Ushbu islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hisoblanadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining qabul qilinishi mamlakat iqtisodiyotini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonlari jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga miqdoriy ta'sirini kompleks baholash zarurati saqlanib qolmoqda. 2010–2024-yillar davomida mamlakatda raqamli infratuzilma hamda internet foydalanuvchilari soni sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon iqtisodiy tuzilma va, ayniqsa, xizmatlar sektorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini ekonometrik usullar yordamida tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- 2010–2024-yillar davomida raqamli ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish;
- raqamli va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash;
- raqamlashtirish ta'sirini baholash uchun ekonometrik modellarni qurish;
- strukturaviy o'zgarishlar va raqamli transformatsiya jarayonlarini tadqiq etish;
- iqtisodiy siyosat uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Raqamli iqtisodiyot va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri bugungi kunda jahon iqtisodiy adabiyotlarining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Erik Brynjolfsson va Brian Kahin (2000) raqamli texnologiyalarning mehnat unumdorligiga ijobiy ta'sirini empirik jihatdan asoslab bergan. Ularning tadqiqotlari internet va axborot texnologiyalariga yo'naltirilgan investitsiyalar kompaniyalar samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Dale W. Jorgenson va hammualliflar (2008) AQSh iqtisodiyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini tahlil qilib, AKT investitsiyalari YalM o'sishining muhim omillaridan biri ekanligini isbotlagan. Xususan, 1995–2000-yillar davomida AQSh iqtisodiy o'sishining taxminan uchdan bir qismi AKT hissasiga to'g'ri kelgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida Sanjeev Dewan va Kenneth L. Kraemer (2000) internet penetratsiyasi va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, internetdan foydalanish yuqori daromadli mamlakatlarda nisbatan samaraliroq ekanligini aniqlagan. Shu bilan birga, Min Wu (2011) tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda ham raqamli texnologiyalarning ahamiyati ortib borayotgani ta'kidlangan.

Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha Tokhirov (2020) Qozog'iston tajribasini tahlil qilib, raqamlashtirish davlat xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaganligini ko'rsatgan. Usmonov va hammualliflar (2021) O'zbekistonda elektron davlat xizmatlari rivojlanishini tadqiq etib, ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishilganini qayd etgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini kompleks ekonometrik baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamlashtirish va raqamli iqtisodiyot masalalari so'nggi yillarda jahon ilmiy hamjamiyatining diqqat markazidagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida talqin qilinib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishda asosiy vosita sifatida baholanadi.



Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish omillari keng qamrovda tahlil qilingan. Xususan, Erik Brynjolfsson va Brian Kahin tomonidan yozilgan “Understanding the Digital Economy: Data, Tools and Research” asarida raqamli texnologiyalar iqtisodiy tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga olib keluvchi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Mualliflar axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlarining takomillashtiruvchi hamda innovatsion faoliyatning kengayishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Shuningdek, Sanjeev Dewan va Kenneth L. Kraemer tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda axborot texnologiyalarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Ularning xulosalariga ko'ra, axborot texnologiyalarining joriy etilishi mamlakatlar kesimida mehnat unumdorligini oshiradi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiradi. Bu esa raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Milliy ilmiy adabiyotlarda esa raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston sharoitidagi rivojlanish xususiyatlari va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri alohida e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Jumladan, J. Abdullayev va M. Saidov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyotning mamlakat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinib, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, davlat xizmatlarini takomillashtirish hamda biznes muhitini yaxshilash imkoniyatlari asoslab berilgan.

Shuningdek, Z. Rahmonovning ilmiy ishlarida internet infratuzilmasining rivojlanishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur tahlil qilingan. Muallif internetdan foydalanish darajasi oshib borishi bilan iqtisodiy faollikning ortishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda xizmatlar sektorining kengayishi kabi ijobiy natijalar yuzaga kelishini asoslab beradi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud ilmiy adabiyotlar raqamlashtirishning iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ular raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini ilmiy asosda yoritib beradi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot sharoitida raqamlashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va takomillashtirish zarurligi ushbu tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Jahon Banki ma'lumotlar bazasidan olingan 2010–2024-yillar uchun yillik ma'lumotlardan foydalanildi. Tahlilga quyidagi o'zgaruvchilar kiritildi:

Bog'liq (natijaviy) o'zgaruvchilar:

- YalM o'sish sur'ati (GDP growth, %);
- xizmatlar sektori ulushi (Services, YalMga nisbatan, %);
- ishsizlik darajasi (Unemployment, %).

Erkin (mustaqil) o'zgaruvchilar (raqamli ko'rsatkichlar):

- internet foydalanuvchilari (Internet users, aholi ulushi, %);
- xavfsiz internet serverlari (Secure Internet servers, 1 million aholiga);
- mobil aloqa obunachilari (Mobile subscriptions, 100 kishiga).

Nazorat o'zgaruvchilari:

- inflyatsiya (Inflation, %);
- yalpi kapital shakllanishi (Gross capital formation, YalMga nisbatan, %);
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI, YalMga nisbatan, %).

Barcha o'zgaruvchilar uchun tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar — o'rtacha qiymat, mediana, standart og'ish, minimum va maksimum qiymatlar hisoblandi. Korrelyatsion tahlilda Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlandi.

Regressiya tahlili Eng kichik kvadratlar usuli asosida amalga oshirildi va uchta asosiy model baholandi:

1-model (YalM o'sishi):

$$GDP_t = \beta_0 + \beta_1 \cdot Internett + \beta_2 \cdot Serverst + \beta_3 \cdot Mobilet + \beta_4 \cdot Inflationt + \varepsilon_t$$

2-model (xizmatlar sektori):

$$Servicest = \beta_0 + \beta_1 \cdot Internett + \beta_2 \cdot Mobilet + \beta_3 \cdot FDI_t + \beta_4 \cdot Unemploymentt + \varepsilon_t$$

3-model (ishsizlik darajasi):

$$Unemploymentt = \beta_0 + \beta_1 \cdot Internett + \beta_2 \cdot GDPt + \beta_3 \cdot Inflationt + \varepsilon_t$$

Dinamik tahlil doirasida o'sish sur'atlari va trend tahlili amalga oshirildi. O'sish sur'ati quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$\text{O'sish sur'ati (\%)} = \frac{\text{Qiymat_oxirgi} - \text{Qiymat_boshlang'ich}}{\text{Qiymat_boshlang'ich}} \times 100$$



Shuningdek, 2020-yildagi pandemiyaning ta'siri hamda raqamli transformatsiya bosqichlari tahlil qilindi. Barcha hisob-kitoblar Stata 17 dasturi yordamida amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2010–2024-yillar davomida O'zbekistonda raqamli ko'rsatkichlar dinamikasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Ushbu davr mobaynida raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, internetdan foydalanuvchilar ulushining ortishi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tahlil natijalari asosida shakllantirilgan tavsifiy statistik ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan. Mazkur jadvalda asosiy iqtisodiy va raqamli indikatorlarning o'rtacha qiymati, mediana, standart og'ish, minimum va maksimum qiymatlari umumlashtirilgan holda aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston iqtisodiy va raqamli ko'rsatkichlarining tavsifiy statistikasi (2010–2024-yillar)

Ko'rsatkich	O'rtacha	Mediana	Standart og'ish	Min	Maks
YalM o'sishi (%)	6.48	6.50	1.48	1.56	8.03
Internet foydalanuvchilari (%)	54.74	55.20	26.01	15.90	89.01
Xavfsiz internet serverlari	311.19	205.79	323.86	0.07	966.62
Mobil aloqa (100 kishiga)	87.19	76.26	15.82	69.28	106.89
Inflyatsiya (%)	11.97	11.84	2.60	8.13	17.52
Xizmatlar sektori (YalM, %)	39.85	39.39	1.98	37.81	45.19
Ishsizlik darajasi (%)	5.06	5.09	0.33	4.46	5.83

O'sish sur'atlari (2010–2024-yillar):

- internet foydalanuvchilari: 460,0 % (15,9 % → 89,0 %);
- xavfsiz internet serverlari: 1 372 300 % (0,07 → 966,62);
- mobil aloqa: 43,4 % (73,81 → 105,89);
- xizmatlar sektori: 13,4 % (39,86 % → 45,19 %).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, eng yuqori o'sish xavfsiz internet serverlari sonida kuzatildi. Mazkur ko'rsatkich 2010-yilda 1 million aholiga nisbatan atigi 0,07 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 966,62 taga yetdi. Bu 13 752 martalik o'sishni anglatadi va O'zbekistonda raqamli infratuzilmani rivojlantirish borasida sezilarli natijalarga erishilganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, internet penetratsiyasi darajasi ham sezilarli darajada oshdi. 2010-yilda aholining 15,9 % qismi internetdan foydalangan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 89,0 % ga yetdi. Bu esa mamlakatda raqamli texnologiyalar ommalashib borayotganini hamda axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Korrelyatsion tahlilda o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblandi. Olingan natijalar asosida asosiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Korrelyatsiya matritsasi

O'zgaruvchilar	Korrelyatsiya koeffitsiyenti	p-qiymat	Izoh
Internet ↔ Xizmatlar	0,872	<0,001	Juda kuchli ijobiy
Serverlar ↔ Xizmatlar	0,891	<0,001	Juda kuchli ijobiy
Internet ↔ YalM	–0,143	0,605	Kuchsiz salbiy
Serverlar ↔ YalM	–0,095	0,738	Juda kuchsiz salbiy
Mobil aloqa ↔ Xizmatlar	0,645	0,009	Kuchli ijobiy
Internet ↔ Ishsizlik	–0,678	0,005	Kuchli salbiy
YalM ↔ Xizmatlar	0,312	0,257	O'rtacha ijobiy

Internet penetratsiyasi va xizmatlar sektori o'rtasida juda kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjud ($r = 0,872$; $p < 0,001$). Bu natija raqamlashtirish xizmatlar sektorining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Xavfsiz internet serverlari soni va xizmatlar sektori o'rtasidagi bog'liqlik yanada kuchliroq ($r = 0,891$; $p < 0,001$) bo'lib, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi xizmatlar sohasini bevosita rag'batlantirishini ko'rsatadi.



Internet penetratsiyasi va ishsizlik darajasi o'rtasida kuchli salbiy korrelyatsiya aniqlangan ($r = -0,678$; $p = 0,005$). Bu holat internetdan foydalanishning kengayishi mehnat bozorida ijobiy o'zgarishlarga olib kelishini anglatadi. Shu bilan birga, YaIM o'sishi va raqamli ko'rsatkichlar o'rtasida kuchli bog'liqlik aniqlanmadi. Bu natija qisqa muddatli ma'lumotlar hamda boshqa makroiqtisodiy omillarning ta'siri bilan izohlanadi.

Quyida regressiya modellari natijalari keltiriladi.

1-model: YaIM o'sishiga ta'sir etuvchi omillar

$GDP_t = 7,89 - 0,024 \cdot Internet + 0,002 \cdot Servers + 0,018 \cdot Mobile - 0,186 \cdot Inflation$ ($t=2,14$) ($t=-0,68$) ($t=0,41$) ($t=0,52$) ($t=-1,89$)

$R^2 = 0,389$; Adjusted $R^2 = 0,146$; F-statistika = 1,60 ($p=0,243$).

Model natijalari shuni ko'rsatadiki, qisqa muddatli davrda raqamli ko'rsatkichlarning YaIM o'sishiga bevosita ta'siri statistik jihatdan ahamiyatli emas. Biroq, inflyatsiyaning salbiy ta'siri 10 % ahamiyatlilik darajasida kuzatiladi.

2-model: xizmatlar sektoriga ta'sir etuvchi omillar

$Service_{est} = 26,34 + 0,182 \cdot Internet + 0,045 \cdot Mobile - 0,267 \cdot FDI - 1,186 \cdot Unemployment$ ($t=5,12$) ($t=3,89$)*** ($t=1,24$) ($t=-0,98$) ($t=-2,43$)**

$R^2 = 0,831$; Adjusted $R^2 = 0,763$; F-statistika = 12,28*** ($p<0,001$)

Mazkur model yuqori tushuntirish qobiliyatiga ega ($R^2 = 0,831$). Natijalarga ko'ra:

- internet penetratsiyasining 1 % ga oshishi xizmatlar sektorini o'rtacha 0,182 % ga oshiradi ($p < 0,001$);
- ishsizlik darajasining 1 % ga kamayishi xizmatlar sektorining 1,186 % ga oshishiga olib keladi ($p = 0,038$);
- model umumiy jihatdan statistik ahamiyatga ega ($F = 12,28$; $p < 0,001$).

3-model: ishsizlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar

$Unemployment_t = 7,62 - 0,024 \cdot Internet - 0,063 \cdot GDP + 0,058 \cdot Inflation$

($t=4,89$) ($t=-2,76$)** ($t=-0,84$) ($t=1,12$)

$R^2 = 0,511$; Adjusted $R^2 = 0,378$; F-statistika = 3,83* ($p=0,041$)

Natijalarga ko'ra, internet penetratsiyasining 1 % ga oshishi ishsizlik darajasini o'rtacha 0,024 % ga kamaytiradi ($p = 0,020$). Model umumiy jihatdan statistik ahamiyatga ega ($F = 3,83$; $p = 0,041$).

* $p<0,05$; ** $p<0,01$; *** $p<0,001$

Raqamlashtirish jarayonining bosqichlari (2010–2024-yillar)

I bosqich (2010–2016-yillar) — boshlang'ich raqamlashtirish:

internet foydalanuvchilari ulushi 15,9 % dan 46,8 % ga oshdi, serverlar soni 0,07 tadan 71 tagacha ko'tarildi, xizmatlar sektori nisbatan barqaror (39–40 %).

II bosqich (2017–2019-yillar) — tezlashgan rivojlanish:

2016-yildan keyin iqtisodiy islohotlar faollashdi, serverlar soni keskin oshib (71 tadan 461 tagacha), internet penetratsiyasi 70 % dan yuqori darajaga yetdi (2019-yil).

III bosqich (2020–2024-yillar) — raqamli transformatsiya:

2020-yildagi pandemiya raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirdi, serverlar soni 2024-yilda 966 taga yetdi, xizmatlar sektori 45 % dan oshdi, internet penetratsiyasi esa 89 % ga yetdi.

2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi alohida ahamiyatga ega. YaIM o'sishi 1,56 % gacha pasaygan bo'lsa-da, raqamlashtirish jarayoni izchil davom etdi va tezlashdi. Bu davrda masofaviy ish, onlayn ta'lim hamda elektron tijoratning jadal rivojlanishi kuzatildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda 2010–2024-yillar davomida raqamlashtirish jarayonining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi. Xususan, internet penetratsiyasi va xizmatlar sektori o'rtasidagi juda kuchli ijobiy korrelyatsiya ($r = 0,872$) raqamli texnologiyalarning iqtisodiy tuzilmalarga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Xavfsiz internet serverlari sonining 13 752 martaga oshgani O'zbekistonda raqamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan izchil siyosatning samaradorligini namoyon etadi. Bu natija Erik Brynjolfsson va Brian Kahin (2000) tomonidan ta'kidlangan raqamli kapital investitsiyalarining ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, Dale W. Jorgenson va hammualiflar (2008) tomonidan AQSh iqtisodiyoti misolida olingan xulosalarga o'xshash tarzda, O'zbekistonda ham raqamli infratuzilmaga investitsiyalar uzoq muddatda iqtisodiy tuzilmaning transformatsiyasiga xizmat qilmoqda.

Regressiya natijalari (2-model) internet penetratsiyasining xizmatlar sektoriga statistik jihatdan ahamiyatli va ijobiy ta'sirini ko'rsatdi ($\beta = 0,182$; $p < 0,001$). Ushbu natija Min Wu (2011) tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun aniqlangan xulosalar bilan mos keladi. Xizmatlar sektorining 39,86 % dan 45,19 % ga oshishi iqtisodiy tuzilmaning modernizatsiyalashayotganini ko'rsatadi. Bu esa elektron tijorat, moliyaviy xizmatlar, axborot texnologiyalari va boshqa zamonaviy xizmat tarmoqlarining rivojlanishini aks ettiradi.



Internet penetratsiyasi va ishsizlik darajasi o'rtasidagi salbiy bog'liqlik ($r = -0,678$) raqamli texnologiyalarning bandlikni oshirishdagi muhim rolini ko'rsatadi. Regressiya natijalariga ko'ra (3-model), internetdan foydalanish darajasining 1 % ga oshishi ishsizlik darajasini o'rtacha 0,024 % ga kamaytiradi ($p = 0,020$). Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari mehnat bozorida yangi malakalarni talab etishini hisobga olib, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ko'rsatkichlar va YalM o'sishi o'rtasida qisqa muddatli davrda kuchli bog'liqlik aniqlanmadi. Bu holat bir qator omillar bilan izohlanadi: kuzatuv davrining nisbatan qisqaligi (15 yil), raqamli texnologiyalarning ta'siri uzoq muddatda namoyon bo'lishi, iqtisodiyotning ayrim an'anaviy tarmoqlarga tayanishi hamda 2020-yildagi pandemiyaning ta'siri. Sanjeev Dewan va Kenneth L. Kraemer (2000) tadqiqotlariga ko'ra, internetning iqtisodiy samaradorligi yuqori daromadli mamlakatlarda tezroq namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda raqamlashtirishning to'liq iqtisodiy samarasi uzoq muddatda yanada yaqqolroq namoyon bo'lishi kutiladi.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamlashtirish sur'atlari mintaqaning ko'plab davlatlariga nisbatan yuqori. Tokhirov (2020) tomonidan Qozog'iston misolida o'rganilgan natijalar bilan solishtirganda, O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari yanada jadallashgan. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) texnologiyalarini joriy etish;
- kiberxavfsizlikni ta'minlash;
- raqamli savodxonlikni oshirish;
- innovatsion ekotizimni rivojlantirish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda 2010–2024-yillar davomida raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Internet foydalanuvchilari sonining 460 % ga oshishi, xavfsiz serverlar sonining keskin ko'payishi va mobil aloqa rivoji (43,4 %) raqamli transformatsiyaning asosiy ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi. Xizmatlar sektorining 13,4 % ga kengayishi esa iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarining faollashganini bildiradi.

2020-yildagi pandemiya raqamli transformatsiyani jadallashtiruvchi muhim omil bo'ldi. Mazkur davrda masofaviy ish, onlayn ta'lim va elektron tijoratning rivojlanishi kuzatildi.

- raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish;
- ta'lim tizimida raqamli ko'nikmalarni shakllantirish va kadrlar tayyorlashni kuchaytirish;
- biznes muhitini yaxshilash va raqamli tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- innovatsion faoliyat va startap ekotizimini rivojlantirish.

Kelgusida sun'iy intellekt, IoT, blockchain texnologiyalari hamda kiberxavfsizlikni ta'minlash ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralishi lozim.

Shunday qilib, raqamlashtirish O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi va global raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz, Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017.
2. Shavkat Mirziyoyev, We will continue our path of national development with determination and take it to a new level, Tashkent: "Uzbekistan" Publishing House, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida Farmon, 2020. [Online]. Available: <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Yillik statistik ma'lumotlar to'plami, 2024. [Online]. Available: <https://stat.uz>
5. J. Abdullayev va M. Saidov, "Raqamli iqtisodiyot va uning O'zbekiston taraqqiyotiga ta'siri," Iqtisodiyot va ta'lim, 23-jild, 4-son, 67–79-betlar, 2022.
6. Z. Rahmonov, "O'zbekistonda internet penetratsiyasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik," Moliya va kredit, 15-jild, 2-son, 34–46-betlar, 2023.
7. Erik Brynjolfsson va Brian Kahin, Understanding the Digital Economy: Data, Tools and Research, Cambridge, MA: MIT Press, 2000.
8. Sanjeev Dewan va Kenneth L. Kraemer, "Information technology and productivity: Evidence from country-level data," Management Science, 46-jild, 4-son, 548–562-betlar, 2000.
9. Dale W. Jorgenson, M. S. Ho va K. J. Stiroh, "A retrospective look at the U.S. productivity growth resurgence," Journal of Economic Perspectives, 22-jild, 1-son, 3–24-betlar, 2008.
10. Tokhirov, "Digital transformation of public services in Kazakhstan: Achievements and challenges," Central Asian Journal of Digital Economy, 3-jild, 2-son, 45–58-betlar, 2020.
11. B. Usmonov, S. Karimov va D. Rahimova, "E-government development in Uzbekistan: Current state and prospects," Journal of Digital Economics and Innovation, 5-jild, 3-son, 112–125-betlar, 2021.



12. Khuong Minh Vu, "ICT as a source of economic growth in the information age: Empirical evidence from the 1996–2005 period," Telecommunications Policy, 35-jild, 4-son, 357–372-betlar, 2011.
13. World Bank, World Development Indicators Database, 2024. [Online]. Available: <https://databank.worldbank.org>
14. UNCTAD, Digital Economy Report 2023, Geneva, 2023.
15. International Monetary Fund, Republic of Uzbekistan: Staff Report for the 2023 Article IV Consultation, Washington, DC, 2023.
16. International Telecommunication Union, Measuring digital development: Facts and figures 2024, Geneva, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>